MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA HAMSHIRALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA SIMULYATSION TA'LIM VA INTERAKTIV USULLARNING SAMARADORLIGI

Mirzayeva Gulshoda Rizoqulovna
Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Buxoro filiali o'qituvchisi

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE

KIRISH

Sog'liqni saqlash tizimida o'rta tibbiyot xodimlari (hamshiralar) bemorlar va ularning yaqinlari bilan eng ko'p muloqotda bo'ladigan mutaxassislardir. Ularning kasbiy muloqot sifati bemor xavfsizligi, davolash tartibiga rioya qilish hamda butun tibbiy jamoaning samarali ishlashi bilan bevosita bog'liq. Biroq, malaka oshirish tizimida an'anaviy tarzda o'tkaziladigan ma'ruzaga asoslangan mashg'ulotlar hamshiralarning real amaliyotdagi muloqot xulq-atvorini deyarli o'zgartirmaydi.

Kattalar ta'limi (andragogika) va uzluksiz kasbiy rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'rta tibbiyot xodimlarida kasbiy-kommunikativ kompetensiyani (KKK) rivojlantirish uchun an'anaviy ta'limdan amaliy-simulyatsion, tajribaga tayanadigan va interaktiv ta'lim texnologiyalariga o'tish zarurati paydo bo'lmoqda.

TADQIQOTNING MAQSADI VA METODOLOGIYASI

Maqsad: Tizimli sharhlar va meta-tahlillar (PubMed, Scopus, Cochrane Library, LIBRARY va b.) bazasidagi dalillar sintezi orqali malaka oshirish kurslarida hamshiralarning kasbiy-kommunikativ ko'nikmalarini oshirishda eng samarali ta'lim usullarini asoslash va baholashdagi uslubiy muammolarni aniqlash.

Metodologiya: R. Whittemore va K. Knaflning 5 bosqichli integrativ sharh metodologiyasi qo'llanildi. Nazariy va empirik manbalar (jami 90 ta adabiyot) doimiy qiyoslash va thematic analysis usullari bilan sintez qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI

Empirik manbalar va xalqaro dalillar bazasini sintez qilish natijasida hamshiralarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi asosiy mexanizmlar va interaktiv metodlar samaradorligi isbotlandi:

1. Simulyatsion ta'lim va tuzilmalangan debrifing

-Standartlashtirilgan bemor (Standardized Patient): Haqiqiy bemor rolini o'ynovchi aktyorlar yoki tayyorlangan mutaxassislar bilan o'tkaziladigan simulyatsiyalar hamshiralarning muloqot ko'nikmalarini va o'z-o'ziga ishonchini sezilarli darajada oshiradi.

- Debrifing (Debriefing): Simulyatsiyadan keyingi tuzilmalangan muhokama tajribani refleksiv o'rganishga aylantiruvchi asosiy bo'g'indir. Video-qayta aloqa (video feedback) orqali hamshira o'z noverbal xatti-harakatlarini tashqaridan kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

2. Standartlashtirilgan muloqot protokollarini tatbiq etish

- SBAR protokoli (Situation, Background, Assessment, Recommendation): Shifokor va hamshira o'rtasidagi kasblararo axborot uzatishda shoshilinch va muhim ma'lumotlarni aniq, qisqa va tushunarli yetkazishni ta'minlaydi.

-Teach-back texnologiyasi: Bemorga dori ko‘rsatmalari va parvarish qoidalarini tushuntirgach, ularning qanchalik to‘g‘ri anglanganini bemorning o‘z so‘zlari bilan qaytarib aytib berishi orqali tekshirish usulidir.
-SPIKES protokoli: Bemorga va uning oilasiga noxush (og‘ir) xabarlarni yetkazishda empatik va deontologik chegaralarni saqlashga yordam beradi.
3. Muloqotni rivojlantirish mexanizmlarining bosqichma-bosqich ta’siri
- Interaktiv seminarlar (ma’ruza va amaliy mashqlar): Barcha muloqot domenlarini qamrab oladi hamda an’anaviy ma’ruzalarga nisbatan amaliyotni o‘zgartirishda yuqoriroq samaradorlik namoyon etadi.
- Qayta aloqali rolli o‘yinlar: Diskursiv-strategik hamda gnostik-lingvistik ko‘nikmalarni oshiradi, hamshiralarning muloqot xatti-harakatlarini yaxshilaydi.
- Standartlashtirilgan bemor simulyatsiyasi: Deontologik-empatik va diskursiv sohada eng yuqori ko‘rsatkich berib, emotsional va affektiv natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
4. Muloqot ko‘nikmalarini baholashdagi uslubiy muammolar
Adabiyotlar tahlili KKKni baholashda bir qancha bo‘shliqlar borligini ko‘rsatdi:
-An’anaviy nazariy testlar real muloqot ko‘nikmasini aks ettirmaydi.
-Eng ishonchli baholash vositasi OSCE (Ob’ektiv tuzilmaviy klinik imtihon) stantsiyalari va SBAR/Teach-back bo‘yicha standartlashtirilgan chek-listlar hisoblanadi.
- Ko‘plab tadqiqotlar natijani kurs tugashi bilanoq o‘lchaydi; ko‘nikmalarning ish joyiga ko‘chishi hamda bemor uchun uzoq muddatli oqibatlari yetarlicha o‘rganilmagan.
5. Kontekstual omillarni hisobga olish
Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida muloqot treninglari mazmuniga quyidagi mahalliy omillar kiritilishi zarur:
- Ko‘p tillilik: O‘zbek, rus, qoraqalpoq va boshqa tillarda muloqot qiluvchi bemorlar bilan til to‘siqlarini bartaraf etish.
- Tibbiy savodxonlik: Bemorlarning tibbiy tushunchalari past bo‘lgan holatlarda murakkab jargonlarni oddiy tilga "tarjima qilish".
- Kasbiy charchoq (Burnout): Stress va emotsional tobi qochgan holatlarda hamshiraning o‘z emotsiyalarini boshqarish va noverbal muloqotni nazorat qilish ko‘nikmalari.
XULOSA VA TAVSIYALAR
- Malaka oshirish tizimida faqat ma’ruzaga tayanib muloqotni o‘rgatish kutilgan natijani bermaydi. Onlayn nazariy modullar va ochiq amaliy simulyatsion treninglarni birga olib boradigan aralash ta’lim (Blended learning) formati eng maqbul yechimdir.
- Hamshiralar malakasini oshirish markazlarida SBAR, Teach-back hamda SPIKES protokollari bo‘yicha maxsus modullarni joriy etish va baholashni OSCE stantsiyalari orqali amalga oshirish lozim.
- Treninglar mazmuniga psixologik charchoqni boshqarish va ko‘p tilli muloqot muhitida ishlash ko‘nikmalarini majburiy komponent sifatida kiritish tavsiya etiladi.

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE